O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING
KATTAQO‘RG’ON FILIALI

“TASDIQLAYMAN”
Direktor:
Sh.R.Urakov
2022 yil

UMUMIY PEDAGOGIKA FANINING O’QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000- Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110200 – Maktabgacha ta’lim

Kattaqo‘rg‘on -2022

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
UPD1412	2024-2025	3,4	8

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	4

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy jami (soat)
1.	Umumiy pedagogika	120	120	240

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad - bo’lajak mutaxassis sifatida talabalarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-metodologik asoslari bilan qurollantirish, pedagogik faoliyat mazmuni, ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo’llari, ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda pedagogik tafakkumi, ijobiy fikrlash qobiliyatini, ta’lim oluvchilar bilan muvaffaqiyatli ishlashga doir zarur malakalarni, vaziyatni to’g’ri baholash, oqilona qarorlarni qabul qilish, ijtimoiy yordamga muhtoj o‘quvchilarga bilim berish, ularni maqsadga muvofiq tarbiyalash ko’nikmalarini shakllantirish, milliy pedagogik meros g’oyalarini, Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini ta’lim muassasalari amaliyotiga maqsadli tatbiq etish tajribasini hosil qilishdan iborat

Fanning vazifasi - Talabalar pedagogika, didaktika, tarbiya nazariyasi, tarbiya turlari, ta’lim menejmenti, uzluksiz ta’lim, uzluksiz ta’lim turlari, ta’lim ishtirokchilari, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi, milliy pedagogik meros, jahon ta’lim tizimi haqida bilim, ko‘nikmalarga ega bo‘lishi.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: - O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Ta’lim to’g’risidagi qonun, maktabgacha, umumiy o’rta ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keying ta’lim. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni asosida uzluksiz ta’lim prinsiplari. Ta’lim to‘g‘risida gi qonuning bo‘lim va moddalari haqida tushuncha berish.Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari .Oliy ta’lim muassasalari turlari . Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi yuzasidan ma’lumotlarni yetkazib berish .

2-mavzu: Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to‘g‘risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari

Pedagogika fani, maqsad va vazifalari . Sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, tarix, falsafa . Barkamol avlod. milliy ong, ta’limning uzviyligi, tarbiyaning. ijtimoiy muhit, irsiyat . Pedagogik fikrlar va g’oyalar rivojining tarixi. Pedagogika tarixini yaxlit rivojlanish jarayoni sifatida o’rganish. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari haqida tushuncha.Ilmiy tadqiqot metodlariga qo’yiladigan talablar.Ilmiy –pedagogik tadqiqotlar.Ilmiy tadqiqot metodlaring tavsifi.Pedagogik tadqiqot metodlari.Adabiyotlari o ‘rganish metodi .Kuzatish metodi.Suhbat metodi.Anketa metodi.

3-mavzu: Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi

“individ” va “shaxs” tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuvi bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning o’rni. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari. SHaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. SHaxs tushunchasi insonga taalluqli bo’lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo’lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo’lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o’zini yaxlit inson sifatida his etishi, o’z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog’i kerak.

4-mavzu: Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar

Pedagogika tarixining maqsadi va vazifalari, eramizdan oldingi davrda tarixiy manbalarda ta’lim tarbiya masalalarining aks etishi. «Avesto» eng qadimgi yozma ma’rifiy yodgorlik sifatida. Ta’lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.Eng qadimgi yozma manbalarda ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi. Pedagogika tarixini yaxlit rivojlanish jarayoni sifatida o’rganish

5-mavzu: VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Islom dinining O’rta Osiyoga yoyilishi va talim-tarbiyaga ta’siri, hadis ilmining paydo bo’lishi va rivojlanishi, sharqda birinchi uyg’onish davrida talim-tarbiyaning rivojlanishi. Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablari va unda ta’lim-tarbiya mazmuni . Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati. Qur’oni Karim – axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo’lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi.

6-mavzu: Sharq uyg‘onish davri va unda ta’lim tarbiya masalalari

IX-XI asrlar – Sharq Uyg’onish davri.Sharq uyg’onish davrida ilm-fan va madaniyat .Muhammad ibn -al Xorazmiy,Abu Nasr Farobiy,Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinoning tarbiya haqida bildirgan fikrlari. Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta’lim haqida. Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit-turk” asarida ta’lim-tarbiya

CamScanner yordamida skanerlangan

masalalari.Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari – pandnoma asar sifatida.Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar.Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati

7-mavzu: XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda tarbiya, maktab, va pedagogik fikrlar

Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Ulug'bek davrida maktab islohoti.Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. Navoiyning oqituvchi (mudarris) to'grisidagi fikrlari.Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari."Axloqiy Jaloliy" asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni.

8-mavzu: XVII-asrlardan XX asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari – husnihatga doir dastlabki qo'llanma sifatida. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asari – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

9-mavzu: XIX ASRNING 2-YARMI – XXASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.1924-1991 YILLARDAO'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI

XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr.Yangi usul maktablarining ochilishi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik

10-mavzu: ENG QADIMGI DAVRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI. YA.A.KOMENSKIYNING PEDAGOGIK NAZARIYASI.

Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida. Qadimgi Rimda pedagogik g'oyalar rivoji. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari. G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang'ich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasi. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

11-mavzu. Didaktikaning maqsad va vazifalari.

Didaktika haqida tushuncha, didaktikaning predmeti va vazifalari, didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi. Metodika va didaktika uzviy bog'liqdir. Metodika deganda bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tu- shunilishini ko'rib o'tdik. Bu fan didaktikaning bo'limidir. Didaktika (yunon—didaklikos — o'qitadigan, o'rgatadigan) — pedagogikaning bilim olish, ta'lim va tarbiya nazariyasiga oid so- hasi. U talabalarning bilim olish, o'zlashtirish va ko'nikmalar hosil qilish jarayoniga xos ta'lim prinsiplari, uslublari va o'quv jarayonini tashkil qilishga oid hamma masalalarni o'rganadi.Sharq va G'arb mutafakkirlarining didaktik g'oyalari .Zamonaviy pedagogik tizim va ta'limga olimlarning yondashuvlari.Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigma(model)lari .

12-mavzu. XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi.

XIX asrning oxiri – XX asrda G'arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo'nalishlari. M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidagi o'rni. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'grisida. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.

13-mavzu Didaktika .Didaktikaning ijtimoiy va fiziologik asoslari.Didaktikaning tamoyillari

Ijtimoiy va fiziologik asoslar haqida tushuncha berish.Didaktikaning tamoyillarini ochib berish . Onglilik tamoyilini va ko'rgazmalilik tamoyili,tizimlilik va muntazamlilik tamoyili,mustahkamlik tamoyili shu kabi tamoyillarni ochib berish .Yaxlit ta'lim – tarbiya jarayonida didaktika fanining vazifasi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar . Ta'limning tamoyillari.Ta'lim qonuniyati,qonunlar.

14-mavzu. Ta'lim mazmuni. Ta'limni tashkil etish shakllari. Ta'lim metodlari va vositalari

Ta'limning maqsad va vazifalari, ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni, hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar, Davlat ta'lim standarti, ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar, o'quv reja, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar. Ta'limni tashkil etish shakllari. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Davlat ta'lim standarti.Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash – pedagogika sifat va samaradorlik omili. O'qitish metodlari haqida tushuncha, o'qitish metodlariga qo'yilidigan pedagogik talablar va ularni guruhlash, ta'lim olganlikni tashxis etish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini hisobga olish va baholash, ta'lim jarayonining shakllari, dars tiplari va tuzilishi.Rus pedagogikasida ta'lim metodlarining tasniflash muammosi ,G'arb pedagogikasida zamonaviy ta'lim metodlariga oid tendensiyalar .

15-mavzu. Ta'limni tashxislash. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar

O'quvchilar bilimini tashxis etishning mohiyati, ta'lim natijalarini tekshirish va

CamScanner yordamida skanerlangan

baholashga qo'yiladigan talablari va vazifalari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari, o'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari. Ta'lim texnologiyalari.Innavotsion pedagogik mazmuni.Innavatsion jarayonning rivojlanishida umumiy yo'nalish. Ta'limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish. Muammoli ta'lim metodlari. Pedagogik innovatsiyalar - bu maqsadlarga samarali erishishga yordam beradigan ta'lim sohasidagi yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish, sinovdan o'tkazish va baholash jarayoni.

16-mavzu Kreativ ta'lim, Aralash ta'lim, Inklyuziv ta'lim

Kreativ ta'lim haqida umumiy tushuncha berish. Aralash ta'lim haqida umumiy tushuncha berish. Inklyuziv ta'lim haqida umumiy tushuncha berish. ar tomonlama fikrlash ta'lim oluvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

17- mavzu Tarbiya nazariyasi. Tarbiya va uning turlari

Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari, tarbiya jarayonining xususiyatlari, tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli, ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari, tarbiya qoidalari va ularning mohiyati. Tarbiya nazariyasi-pedogogika fanining bir kisimi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil e'tilish masalalarini o'rganadi. Tarbiya tamoyillari .Tarbiya metodlari ,usullari va vositalari .Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari va yo'nalishlari . Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyati, asosiy tushunchalari, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari, ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish, Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati, o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning shakl, metod va vositalari, fuqarolik tarbiyasi, mehnat,jismoniy, estetik tarbiyaning mohiyati, maqsad va vazifalari, ekologik, iqtisodiy tarbiya mohiyati, maqsad va vazifalari, mehnat, jismoniy, estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari, ekologik, iqtisodiy tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari

18-mavzu. Jismoniy tarbiya, Estetik tarbiya, Ekologik, Iqtisodiy tarbiya.

Jismoniy tarbiya, Estetik tarbiya, Ekologik, Iqtisodiy tarbiya haqida to'liq tushunchaga ega bo 'lish . Boshlang'ich sinf o'quvchilarga estetik ruhda tarbiyaga berishga ta`sir etuvchi omillar. Estetik ruhda tarbiyaning yana bir tarbiyasi badiy ijod namunalari hisoblanadi. Ayrim pedagogik adabiyotlarda badiy tarbiya deb nomlanib, o'z ichiga badiy adabiyot,musiqa,qo'shiq va raqs sa`natini,teatr va kino sa`natin, tasviriy san`atning, xaykaltaroshlik, me`morchilik, halq amaliy sa`nati va boshqalarni oladi. Bu san`at asarlarini qiymati dunyoviy boyliklarda imkoniyatlari cheksizdir. Ayrim sa`nat asarlarini qiymati dunyoviy boyliklarda nixoyat darajada ustun turgannidek, badiiy tarbiya ham odamlarning ma`naviy boyishlarida tengi yo'q ta`sir kuchiga egadir

19-mavzu. Huquqiy tarbiya, g'oyaviy-siyosiy tarbiya

Huquqiy tarbiya, g'oyaviy-siyosiy tarbiya tarbiya haqida to ' liq tushunchaga ega bo 'lish . G'oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida - o'quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va hokazolar.

20-mavzu. Tarbiyaning umumiy metodlari

Milliy tarbiyaning o'ziga xosligi va mazmuni. Milliy tarbiyaning o'ziga xosligi, tarbiya metodlari haqida tushuncha, xalq pedagogikasida tarbiya metodlari, tarbiya metodlari, tarbiyaning tarkibiy qismlari. Ijtimoiy ongning shakllanish metodlari..Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq atvor meyorlarini shakllantirish.Pedagogik rag'batlantirish va xulq atvorning tuzatish metodlari.Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

21-mavzu. Ijtimoy pedagogik faoliyat pedagogika fani sohasi sifatida. Ijtimoyilashuv omillari va mexanizmlari

Respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri, hozirgi vaqtda ijtimoiy pedagogika faniga zaruriyat va uning ahamiyati, rahmdillik va xayr-sahovat ijtimoiy-pedagogik faoliyatning madaniytarixiy an'anasi sifatida, ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti, ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Ijtimoiylashuv tushunchasi va jarayoni, ijtimoiylashuv mexanizmlari, Ijtimoiylashuv omillari, ijtimoiylashuv vositalari va agentlari haqida umumiy tushuncha berish. Ijtimoyilashuv omillari va mexanizmlarini

22-mavzu. Deviant xulq –ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida

Deviatsiya haqida tushuncha, deviatsiya turlari, deviant xulq - atvorni keltirib chiqaruvchi omillar, deviant xulq – atvorli bolalar bilan ishlash. Deviant xulq-atvor jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan faoliyat va xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib giyohvandlik, ichkilikbozlik,o'z joniga qasd qilish, yolg'onchilik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Deviatsiyaning bir nechta boshqa turlari odamlarning o'zaro munosabatlari buzilshi asosida yuzaga kelib, jamiyatga jiddiy muammolar tug'dirmaydi va u ishtirokchilarning o'zlari tomonidan boshqariladi.

23-mavzu. Pedagogik mahorat va uning o 'qituvchi faoliyatidagi o'rni .

Pedagogik mahorat tushunchasini ochib berish .Uning pedagog hayotida tutgan o'rni. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi .Pedagogik mahorat— o'qituvchilarning **shaxsiy** (bolajonligi, xayrihoxligi, insonparvarligi, mehibonligi va h.k.) va **kasbiy** (bilimdonligi, zukkoligi,

CamScanner yordamida skanerlangan

fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va h.k) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir.

24-mavzu. O'qituvchining faoliyatida pedagogik qobilyatlarning o 'rni

O'qituvchining pedagogik qobilyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish va har bir qobilyatning mazmunini to'laqonli anglab yetish. O`qituvchi maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisi. O`quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi asosan o`qituvchiga, uning kasbiga, iymon-e'tiqodiga bog`liq bo`ladi. Shuning uchun o`quvchilar tarbiyasiga oid pedagogik ishlar maxsus uyushqoqlik hamda muayyan malaka va ko`nikmalarnigina emas, balki pedagoglik qobiliyatlari darajasiga taalluqli bir qancha psixik xususiyatlarning ham mavjud bo`lishini talab etadi. Kasbiy kompetensiyasining shakllanish bosqichlari.

25-mavzu. Kommunikativ malakalar va ta'sir ko`rsatish

Kommunikatsiya metodlari. O`qituvchining kommunikativ malakasi. Kommunikativ ta'sir etish yuli. O`qituvchining kommunikativ madaniyati. O`qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo`llari. O`qituvchining pedagogik nazokati masalasi munosabati bilan yana shuni ham ta'kidlab aytish lozimki, qachonki o`quvchilar o`qituvchining ijobiy hislatlari to`g`risida gapirar ekanlar, ular hamisha o`qituvchining adolatliligi kabi hislatlarni birinchi o`ringa qo`yadilar.

26-mavzu Pedagogik takt va pedagogik odob .

Pedagogik takt va pedagogik odob nim a ekanligini anglash va hayotga tadbiq etish.Takt ahloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, andishali hulq, har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi.

27-mavzu . Pedagogik texnika va nutq.

Pedagogik texnika va nutq .Nutq texnikasi va madaniyati. Nutq madaniyti va no'tiqlik san'ati. O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini shakllantirish .

28-mavzu Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya Korreksion pedagogika .

Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ta'limning ajralmas qismi sifatida . Aqliy va sensor rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o 'qitish .Eshitish qobilyatid nuqsoni bo'lgan ,ko 'rish qobilyatida nuqsoni bo'lgan , tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilarni korreksion pedagogika yordamida o 'qitish .

29-mavzu O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati. O'qituvchining kun tartibi va ish o'rni. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillari.Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari. MITE – moddiy ishab chiqarish soxasigagina emas, balki mehnatning barcha soxalaridagi hamma turlariga taaluklidir

30-mavzu O'z-o'zini tarbiyalash vao'z ustida ishlash. pedagogika tajribani to'plash tizimi

O'z-o'zini tarbiyalash vao'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallar to'plash.Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash metodlari. O'z - o'zinitarbiyalash - bu insonni barkamollikka erishish maqsadida ongli va maqsadli faoliyat kursatishi bo'lib, uning diqqat markazida mukammallikka intilish va unga erishish nuktai - nazari yotadi.

Tarbiya maqsadlari - o'z - o'zinitarbiyalashning maqsad va moxiyati o'qituvchi shaxslning kasbiy sifatlarini tarbiyalashga keng kamrovli dunyokarashni, jismonan va ma'nan soglom ruxiy shakllantirishga karatilishi lozim

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi :

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari
2. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.
3. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi
4. Pedagogik takt va pedagogik odob
5. Pedagogik texnika va nutq

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi :

6. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar
7. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar(4)
8. Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim tarbiya masalalari (4)
9. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda tarbiya, maktab, va pedagogik fikrlar (4)
10. XVII-asrlardan XX asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji (4)
11. XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.1924-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi (4)
12. Eng qadimgi davrlardan xix asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.(4)
13. Didaktikaning maqsad va vazifalari.
14. Didaktikaning ijtimoiy va fiziologik asoslari.Didaktikaning tamoyillari
15. Ta'lim mazmuni. Ta'limni tashkil etish shakllari
16. XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi. (4)
17. Didaktikaning ijtimoiy va fiziologik asoslari.Didaktikaning tamoyillari

CamScanner yordamida skanerlangan

18.Ta'lim mazmuni. Ta'limni tashkil etish shakllari.Ta'lim metodlari va vositalar
19. Ta'limni tashxislash. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar
20.Kreativ ta'lim, Aralash ta`lim, Inklyuziv ta'lim .(4)
21.Tarbiya nazariyasi. Tarbiya va uning turlari
22.Jismoniy tarbiya, Estetik tarbiya.
23.Ekologik, Iqtisodiy tarbiya.
24.Huquqiy tarbiya, g'oyaviy-siyosiy tarbiya
25.Tarbiyaning umumiy metodlari
26.Ijtimoiy pedagogik faoliyat pedagogika fani sohasi sifatida. Ijtimoyilashuv omillari va mexanizmlari
27.Deviant xulq –ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida (4)
28.Pedagogik mahorat haqida tushuncha va uning o 'qituvchi faoliyatidagi o 'rni
29.O'qituvchining faoliyatida pedagogik qobilyatlarning o 'rni (4)
30. Kommunikativ malakalar va ta`sir ko`rsatish

Jami ajratilgan soat :60

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

(120soat)

1. Pedagogika fani, uning predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari
2. Didaktika – ta'lim nazariyasi sifatida
3. Ta'lim funksiyalari. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari
4. Ta'lim mazmuni. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi hujjatlar
5. Ta'lim metodlari va vositalari
6. Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari
7. Ta'lim olganlikni tashxis etish
8. Tarbiya jarayoninig mazmuni
9. Tarbiyaning umumiy metodlari
10. O'quvchilar jamoasini shakllantirish
11. Tarbiya va uning turlari. Axloqiy va aqliy tarbiya, tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashni rivojlantirish.
12. Jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, ekologik, iqtisodiy tarbiya
13. Korreksion (maxsus) pedagogika
14. Ta'lim muassasi menejmenti
15. Pedagogika tarixi fani haqida. Fanning maqsadi va vazifalari.
16. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari
17. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri.
18. Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi.
19. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab.
20. XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji
21. XIX asrning II yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar
22. Turkistonda o'lkasida ilg'or pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi. (Jadidchilik harakati)
23. 1917-1990 yillarda O'zbekiston ta'lim tizmi va maorifi
24. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji. Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi
25. Ijtimoiy pedagogik faoliyat pedagogika fani sohasi sifatida
26. Ijtimoyilashuv omillari va mexanizmlari
27. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat
28.. Deviant xulq –ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida
29. Giyohvandlik-deviant xulq-atvor shakli sifatida.
30. Maktabgacha ta'limga oid Internet yangiliklari.
31. Metodologiya va zamonaviy o 'qitishning konsepsiyalari.
32. O 'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish.
33. Pedagogika majmui va uni boshqa fanlar bilan aloqalari.
34. O'quvchilar faoliyatini hisobga olishning metodlari
35. Reyting tizimi nima? U qanday afzalliklarga ega?
36. Besh balli baholash mezoni
37. O`quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari
38. Jamoa an'analari
39. Tarbiya metodlarining maqsadi
40. Tarbiya metodlaridan hikoya, suhbat, namuna hamda ma`ruza
41. Xalq pedagogikasi tarbiya metodlari
42. Rag'batlantirish va jazolash metodlari
43. Xalq og'zaki ijodida insondagi xislatlar
44. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari
45. "Avesto"dagi axloqiy uchlik jadvalini tuzing.
46. Qadimgi turkiy bitiglarda ulug'langan xislatlarni yozib chiqing va mazmunini izohlang.
47. IX-XII asrlarda ta'limiy-axloqiy asarlarning paydo bo'lishi shart-sharoitlari.
48. Ta'limiy-axloqiy asarlar mazmunidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlang.
49. Ta'limiy-axloqiy asarlarda ifodalangan komil insonga xos xislatlar jadvalini tuzing.
50.. Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya Korreksion pedagogika .(4)
51. O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi. pedagogik takt va pedagogik etika.
52. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish

CamScanner yordamida skanerlangan

	metodikasi. 53. Nutq texnikasi va madaniyati 54. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Pedagogikada tajribani to'plash tizimiO'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari 55. Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim tarbiya masalalari 56. Pedagogik mahorat haqida tushuncha va uning o 'qituvchi faoliyatidagi o 'rni . 57. O'qituvchining faoliyatida pedagogik qobilyatlarning o 'rni (4) 58. Kommunikativ malakalar va ta`sir ko`rsatish 59. Pedagogik takt va pedagogik odob. Pedagogik texnika va nutq. 60. Huquqiy tarbiya, g'oyaviy-siyosiy tarbiya
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli; ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, birligi, differensiatsiyasi, yagona pedagogik jarayon; ta'lim nazariyasi(didaktika)ning asosiy komponentlari: konsepsiyalari, paradigmalari; ta'lim prinsiplari; ta'lim metodlari, texnologiyalari; ta'lim turlari va bosqichlari; ta'limni tashxis qilish; tarbiya nazariyasining mohiyati; tarbiyaning mazmuni, prinsiplari; tarbiyada muhit (sotsium), ruhiyat (psixologiya); tarbiya metodlari va texnologiyalari; maxsus pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari; tarbiya turlari; jamoada, oiladagi tarbiya hamda o'z-o'zini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari; O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi; ta'limni boshqarish shakllari; shaxsga ta'lim va tarbiya berish g'oyasining paydo bo'lishi; ta'lim va tarbiya to'g'risida Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari; jahon pedagogik jarayoni; O'zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini; pedagogik fikr tarixida mahorat masalalari haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi;** Ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va ma'naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish; o'z pedagogik faoliyatini rejalashtirish; ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llash; o'quvchini rag'batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste'dodi, iqtidorini ro'yobga chiqarish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish; o'quvchilar bilimini baholash; ota-onalar, jamoa, o'quvchilar bilan yakka va guruh bo'lib ishlash; o'quvchilar guruhlarini boshqarish; tanlangan metod va texnologiyalarni joriy qilishda muhitni, vaziyatni baholay olish; ta'lim va tarbiya jarayonida talab kilingan irodani namoyish qilish, sabr-toqat, qat'iyat, kayfiyatni o'zgartira olish, javobgarlikni his qilish; o'z mehnatini rasmiy va ijodiy tashkil eta olish; vaqtdan unumli foydalanish; o'z mahoratini tinmay oshirib borish; ilg'or tajribalarni o'z faoliyatiga singdirish **ko'nikmalariga ega bo'lishi;** Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligini tadbiq etish;
	ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va ma'naviyatimizning boy meroslarini singdira olish; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi tushunish; davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligini tushuntira bilish; ta'lim dasturlariga metodik jixatdan yondasha olish; o'quvchilar ongiga ta'lim olish majburiyligi, kasb-hunar tanlash ixtiyoriyligini singdira bilish; yoshlarni bilimli bo'lishiga va ulardagi iste'dodni rag'batlantira olish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirib olib borish **malakasiga ega bo'lishi kerak**
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** Fanni o'zlashtirishda dars jarayonida qo'llaniladigan va pedagogik amaliyotga tatbiq etiladigan, ilmiy asoslangan ma'ruza, amaliy va seminar darslarida mos ravishdagi darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, vertual stendlardan, shuningdek "FSMU", "Keys stadi", "Fikrlar xujumi", "Zig-zag", "Klaster" metodi, "Blits-so'rov", "Tarozi", "Yelpig'ich" va "B.B.B" kabi interfaol metodlardan foydalaniladi
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1.R.A.Mavlanova,N.H.Rahmonqulova,K.O.Matnazarova ,M.K.Shirinov ,S.Hafizov Umumiy pedagogika "Fan va texnologiya"2018 ,528 bet 2.B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. "Sanostandart" nashriyoti. Toshkent 2017 y. 3.R.A.Mavlonova, N.Raxmonqulova ,N.Voxidova,K.Matnazarova Pedagogika (Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti)darslik Toshkent-2013 3. A.Musurmanova, X.Ibragimov, OJamoldinova, K.Risqulova, S.Yo'ldosheva, A.Jumayev, F.Babashev, P.Isamova, S.Sharipova, G'.Salohiddinova, K.Todjibayeva "Umumiy pedagogika" I qism Yoshlar nashriyot uyi toshkent - 2020 **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi) O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani sohasi: bakalavriat yo'nalishi uchun darslik//prof.M.X.Toxtaxadjayevaning umumiy tahriri ostida, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2010 4. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008. 5.K.Hoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T:.O'qituvchi 2010-yil 6. K.Hoshimov, S.Nishonova Pedagogika tarixi.T.: 2005 y

CamScanner yordamida skanerlangan

	7.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil. –Toshkent "O'qituvchi", 1995; 2-jild. Tuzuvchi-mualliflar S.Ochil, K.Hoshimov – Toshkent "O'qituvchi", 1999 y. 8.N.Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKN.T.: 2009-yil. 9.R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Noshir 2009-yil **Axborot manbalari (saytlar):** 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 2.http://tdpu.uz 3.http://ziyonet.uz 4.http://edu.uz 5. www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK) 6. http:// pedagog. uz
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali kengashining 202_ yil ___-_____ -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** L.Yu.Kalkonova – SamDUKF, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport" kafedrasi o'qituvchisi
9.	**Taqrizchilar:** **Dots. Sh.R.Urakov** - SamDUKF, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi **Dots.N.Kiyamov** – Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakultetiti Fakultetlararo pedagogika kafedrasi professori (DSc)

CamScanner yordamida skanerlangan